

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Karimova N. V.

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

knazokat68@gmail.com

ANTIK DAVR FARG‘ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI

ANNOTATSIYA

Jamiyatning urbanizatsiya jarayonini o‘rganish muammosi tarix fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir shahar madaniyatlarining dastlabki bosqichlarini o‘rganishda topilgan arxeologik manbalar va yodgorliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiya jarayonlarini to‘liq o‘rganish uchun arxeologik tadqiqot olib borgan, olimlarning ilmiy ishlarini ko‘rib chiqish hamda ularni zamonaviy tahlillar bilan solishtirib o‘rganishni muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Marhamat, Mingtepa, Axsikent, Quva, Xorazm, shaharsozlik, an‘analari, topografiya, urbanizatsiya, antik davr.

KIRISH

Hozirgi kunda tarix fanini taraqqiy etishi natijasida ko‘plab savollar yuzaga kelmoqda, masalan shaharsozlik an‘analari rivojlanishiga nimalar sabab bo‘ldi va Markaziy Osiyoda ilk shaharsozlik an‘analari qachondan taraqqiy eta boshladi. Insoniyatning rivojlanish bosqichlarini ayrim jihatlarini shaharlarsiz tasavvur etish juda qiyin. Shaharlarni rivojlanishi aholi turmush tarzini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Asosan savdo va xunarmandchilikni har tomonlama gullab yashnashi, urbanizatsiya jarayonlariga o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga olib keldi. Dastlabki shaharsozlik an‘analari Shumer, Akad, Bobil, Hindistonda va keyinchalik Xitoyda paydo bo‘lgan. Bunday shaharsozlik an‘analari O‘rta Osiyo hududiga to‘laqonli kirib kelmagan. Har bir hududni iqlimi, mintaliteti va yashash turmush tarzidan kelib chiqib o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Misol uchun Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi rahbari S.P. Tolstovni fikriga ko‘ra Kaltaminor madaniyati tarixiy va madaniy aloqalarini so‘nggi neolit davridan olib borilganligini ta’kidlab o‘tadi, bunga sabab mikrolitlarning tarqalishi Orolbo‘yidan Shinjongacha bo‘lgan hududni qamrab olganligini aytadi. Bu davrni so‘nggi neolit yoki ilk bronza davri (miloddan avvalgi III – II ming yillik) ya’ni Sibir va Ural mintaqasi bilan bog‘liqlikda rivojlandi deb xulosa berdi. Bundan tashqari Jonbosqal’a №4 dan ham faqat Hind okeani havzasida (Qizil dengiz, Fors va Arabiston ko‘rfazlari) keng tarqalgan chig‘anoqlardan yasalgan zargarlik buyumlarining topilishi Kaltaminor madaniyati odamlarining tashqi aloqalari yaxshi bo‘lganligi haqida ma’lumot berib o‘tadi [11.65.]. Qadimgi Xorazm hududiga xos bo‘lgan romb shaklidagi shaharsozlik

an'analari mil. avv. III-II asrlarga kelib kamayishni boshladi. Farg'ona vodiysi xududida esa shu davrdan boshlab taraqqiy eta boshladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

O'rta Osiyo orqali Sibir va Ural qabilalari hamda Hind okeani qirg'oqlari o'rtasida shu tarzda o'rnatilgan, neolit davri madaniy aloqalari tizimi uyg'ur tillar hamda hind-yevropacha bo'lgan Hindiston tillari o'rtasidagi lingvistik o'xshashlikni sabablarini tushuntiradi deb taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari Xorazm shaharsozlik an'analari Mesopotamiya shaharsozlikgi an'alariga juda o'xshashligini ham aytib o'tadi [11.65].

Markaziy Osiyo hududidagi urbanizatsiya jarayonlari bronza davri oxri va ilk temir davrlarida o'zgarishlarga uchradi. Buning asosiy sabablaridan biri bu davrga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, o'rnga sinfiy jamiyat rivojlanishi natijasida davlatlar vujudga kela boshladi. Bir qancha arxeolog olimlar tomonidan qadimgi dunyoni davrlashtirish masalasida ayrim tadqiqotlar o'tkazilgan. Bulardan biri B.M.Masson qadimgi Sharq shahrsozlik an'analari miloddan oldingi III ming yillik oxri I ming yillik o'rtalarida rivojlanganligini ta'kidlab, ikkinchi bosqichi antik davr miloddan avvalgi III asrdan milodning IV-V asrlarigacha bo'lgan davrni qamrab olishini aytib o'tadi [2.5-6.].

O'rta Osiyodagi ilk shaharsozlikni taraqqiy etish bosqichlari haqida ko'plab arxeolog olimlar turli xil nazariyalarini berib o'tadi. Asosan Sovet davri arxeologlari tomonidan ko'plab ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Farg'ona vodiysida juda ko'plab arxeologik yodgorliklar davlat xaritasiga tushurildi. Imkon qadar qazish ishlari olib borilib ulkan moddiy madaniyat boyliklari muzeylarimizda to'plangan. Yodgorliklarni o'rganishda imkon qadar ularga bir majmua sifatida qarab kelinmoqda. Bu ayniqsa Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi misolida o'z davrida tajribadan o'tgan edi. Qadimgi Xorazm davlatining gullab-yashnashi, shaharlari, hunarmandchiligi miloddan avvalgi III asrda ham rivojlanib bordi. Shu davrdan asosiy aholi to'rtburchak shakldagi mustahkam qishloqlarda jamoaviy yashab kelishmoqda edi. Ibodatxonalarning markazida katta o'choqlarda olov doim yonib turgan hamda ibodatxona atrofi aholi uylari bilan o'rab olingan. Ularning uy rozg'or buyumlari ya'ni sopol idishlari asosan oval shaklida bo'rtma naqishli sopol idishlar keng tarqalgan. S.P.Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya Qadimgi Xorazm davlatini har tomonlama o'rgandi [11.76.].

Vodiyshunos arxeologlar ham shu usulda tadqiqot ishlarini tashkil etishni rejalashtirgan. Shunday yodgorliklardan biri Mingtepa shahar xarobasi ilk bor 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan, M.E.Massan rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan o'rganilgan. 1946-yilda Leningradlik professor A.N.Berishtam Mingtepa tarixini arxeologik jihatdan o'rganishga

kirishdi. Arxeologik topilmalar va yozma manba ma'lumotlarini birinchi bor umumlashtirdi [5.16.]. Yozma manbalarga ko'ra Ershi ancha katta shahar bo'lib, ikki qator devor bilan o'ralgan. Hozirgi Mingtepa xarobalari ham devorlar bilan ajratilgan, deb N.G.Gorbunova o'zining "Ko'hna Farg'onada" asarida keltirib o'tadi. Uning fikricha, Mingtepa Farg'ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan, umumiy maydoni 45 ga teng, lekin shaharning ikkinchi mudofaa devori o'rab turgan maydon haqida aytib o'tmaydi [6.13.]. Demak bu davrga kelib shaharning ikkinchi mudofaa devori saqlanmagan degan xulosaga kelish mumkin.

O'rta Osiyoning shimoli – sharqiy hududlarida joylashgan Farg'ona vodiysi hududlarida bronza davri uzoqroq vaqt mobaynida saqlanib qolgan. Marhamat tumanida joylashgan Mingtepa shahar xarobasi o'rganilishi davomida bugungi kunda ham bir qancha arxeologlar faol qatnashdilar. Masalan B.X.Matboboyev amalga oshirgan arxeologik natijalarga ko'ra qadimgi Dovon davlatini poytaxti bo'lishga ko'proq haqli yodgorlik Mingtepa deb hisoblaydi. Chunki Xitoy ekspeditsiyasi va B.X.Matboboyev birgalikda olib borgan tadqiqotlar natijasida Mingtepa ichki shahar hududi 41,2 gektarni, tashqi shahar maydoni 320 gektarni tashkil qilishi haqida o'z hisobotlarida aytib o'tishgan. Tashqi devor va burjlar bilan mustahkam qilib o'ralgani, bu fikrimizni dalili hisoblanadi. Mudofaa devori mustahkam qilib qurilgan bo'lib, devorning eng quyi qismi 5,45 m, yuqori qismi 4 m, balandligi 6 m tashkil qilganligi tan chan tayog'i analiziga asoslangan holda bu yodgorlik Ershi shahar xarobasi bo'lishi mumkin, deb taxmin qilamiz. Bundan tashqari Arovon darasidagi qoya tosh suratlari bilan birgalikda, shu hududdan topilgan sopol parchasidagi ot tasviri ham hali boshqa yodgorliklarda topilganligi haqida uchramaydi [9.14.].

Ayni vaqtda Mingtepa shahar xarobasi Antik davr shahar tizimini ko'proq yorituvchi yodgorlik hisoblanadi biroq, Mingtepa shahrining asosiy belgilaridan biri bo'lgan xunarmandchilik ustoxonalari hali aniqlangani yo'q.

Akademik Y. G'ulomov boshchiligida 1960-yildan olib borilgan tadqiqotlari natijasida Jomasho'ydan Namanganga borish yo'lining chap tomonida joylashgan antik davr Axsikenti miloddan avvalgi III–II asrlarga taalluqli ekanligi aytib o'tilgan. Axsikent yoshi jihatdan "Afrosiyobga tengdosh shahar ekanligi" ni ayrim olimlar tarafidan aytib o'tilgan. Natijada Axsikentga "Farg'onaning Afrosiyobi", nomini berishgan [1.37]. Lekin hozirgi vaqtda Axsikentning katta qismi ekinzor qilib o'zlashtirilib foydalaniladi, uy–joy qurilgan, qabriston qilingan, tuproqlaridan qurilish ashyosi sifatida foydalanishgan [10.64]. Shahristonning janubiy – sharqiy qismida olib borilgan, qazishmalar natijasida u yerda naqshli, to'rtburchak "Dovon tipi"ga mansub sopol buyumlar topilib o'rganilgan. Shahristonning quyi qatlamlari miloddan avvalgi III–II asrlarga taalluqli ekanligi qadimshunos olimlar I. Ahrorov va A. Anorboyevlarning tadqiqotlari ko'rsatib o'tdi [3. 34].

Axsi shahri ark uchta qismga ajratgan holda qazishma ishlarini olib borildi. 1979-yilda arkning markaziy qismida va 1976-yildagi I. Axrorov tomonidan solingan transheyalar, tozalash ko‘rinishida davom ettirildi. I. Axrorov tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida 6,3 metrli madaniy qatlamni stratifik jihatdan ochib o‘rganishga imkon yaratdi. 1980-yillarda esa markaziy qismdan g‘arbda qazishma ishlari davom ettirildi va natijaga ko‘ra bir necha xonalar ochib tahlil qilindi. Bu xonalar kompleks mudofaa harakteriga ega ekanligi ko‘rinib turardi [4. 19].

Shahmardonsoy – Marg‘ilonsoy va Kosonsoy bo‘ylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, Farg‘ona vodiysida sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi tarixiga bir qancha aniqliklar kiritildi [7. 19].

Kosonsoyni quyi oqimida joylashgan Axsikent vohasining asosiy qismi mil. avv. X-IX asrlarda o‘zlashtirilgan hisoblanib, Eski Axsi yodgorligi hududida dehqonchilik manzilgohlari bo‘lganligi arxeologik tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topdi. Farg‘ona vodiysidagi shunga o‘xshash manzilgohlarning poytaxti Dalvarzin shahri bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb taxmin qilinadi [2. 6].

Qadimda qurilgan shaharlarni qurulish uslubiga ko‘ra davrlarga ajratish mumkin. Dastlabki shaharlar ikki qismdan iborat bo‘lib, ichki qismi ark hukmdar yashaydigan qismi hamda tashqi qismi oddiy xalq istiqomat qilgan deyish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik shaharsozlik an‘analari taraqqiy etgani sabab, antik davr shaharlari uch qismdan iborat bo‘la boshladi. Ark bu hukmdor istiqomat qilgan hudud. Shahriston hukumdorga yaqin insonlar va hunarmandlar yashaydigan qism hamda rabot qismida esa dehqonlar va chorvadorlar istiqomad qilib kelgan hudud hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Farg‘ona vodiysida shaharsozlik an‘analari, ilk temir davridan taraqqiy eta boshlagan. Buning asosiy sabablaridan biri sug‘orma dehqonchilikni rivojlanishi hamda hunarmandchilikni taraqqiy etishi hisoblanadi. Ilk temir davriga oid o‘rganilgan madaniy yodgorliklardan bizgacha Andijon hududida joylashgan Dalvarzin yodgorligi va Chust madaniy yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorliklar haqidagi ma‘lumotlarni shu yodgorliklarda bir necha bor arxeologik kuzatishlarni olib borgan arxeolog olim Y.A.Zadneprovskiy tadqiqotlari natijalari bilan tanishib o‘rganishimiz mumkin. [8.34]

Lekin hozirgi kunda Mingtepa va Quva yodgorliklarida olib borilayotgan zamonaviy arxeologik tadqiqotlar hali eng quyi qatlamlarga yetib bormaganligi sababli qaysi davrga taalluqli ekanligini aytish mushkul.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев О. Наманган вилояти. Наманган, Наманган нашриёти, 1995.
2. Anorboyev A. Fargʻonaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan oʻrni. – T. Fan. 2022
3. Анарбаев А. Древняя Фергана и Великий шелковый путь // Человеческий капитал - М., 2019. №2 (122)
4. Ахроров И. Раскопки военной казармы в арке городища Ахсикет // Древняя и средневековая археология юга Средней Азии (к проблеме истории культуры). – Ташкент. 1990
5. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-шаня и Памиро-Алая / МИА №26. М.-Л.: 1952
6. Горбонунова.Н.Г. Кухна Фаргона: Тошкент; Фан; 1972.
7. Эшов Б. Кадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи.: Тошкент, 2006
8. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М., Наука; 1962
9. Матбобоев Б.Х. Водийнома // Ахсикент-очик осмон остидаги музей: Андижон Университети; .№3 (14) 2019
10. Қосимов Й.Қадимги Фарғона сирлари: Тошкент; Фан.
12. Толстов. С. П. Деревний Хоразм: М.; 1948.

Karimova N. V.

Basic doctoral student at the Fergana state university

knazokat68@gmail.com

**DEVELOPMENT OF URBANIZATION PROCESSES IN THE
FERGANA VALLEY IN THE ANCIENT PERIOD**

ABSTRACT

The problem of studying the process of urbanization of the society is one of the main tasks of the science of history. Archaeological sources and monuments found in the study of the first stages of the cultures of each city are of special importance. In order to fully study the processes of urbanization, it is important to review the scientific works of scientists who conducted archaeological research and compare them with modern analysis.

Keywords: Marhamat, Mingtepa, Ahsikent, Kuva, Khorezm, city buildings, traditions, topography, urbanization, antiquity.

Каримова Н. В.

Базовый докторант Ферганского государственного университета

knazokat68@gmail.com

РАЗВИТИЕ УРБАНИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В ДРЕВНИЙ ПЕРИОД

АННОТАЦИЯ

Проблема изучения процесса урбанизации общества является одной из основных задач исторической науки. Особое значение имеют археологические источники и памятники, обнаруженные при изучении первых этапов культуры каждого города. Для полноценного изучения процессов урбанизации важно рассмотреть научные работы ученых, проводивших археологические исследования, и сравнить их с современным анализом.

Ключевые слова: Мархамат, Мингтепа, Ахсикент, Кува, Хорезм, градостроительство, традиции, топография, урбанизация, старина.